

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2023-yil 4-son

VOLUME 7 / ISSUE 4 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.4.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref

Content
Registration

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 5 **AXMEDSHAYEVA MAVLYUDA AXATOVNA**
Hokimiyatlar bo'linishi nazariyasi va uning
shakllanishiga doir ayrim nazariy masalalar

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 17 **TUL'TEYEV ILYAS TAVASOVICH**
Послание Президента страны к народу и
Олий Мажлису: конституционно-правовой
анализ
- 26 **YAKUBOV SHUXRAT UMMATALIYEVICH**
Oliy ta'lim transformatsiyasi: YUNESKOning
"Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish
to'g'risida"gi Global konvensiyasini ratifikatsiya
qilish zarurati
- 35 **ALIMUXAMEDOV SUHROB
AYBEKOVICH**
Децентрализация системы государственного
управления в унитарных и федеративных
государствах: сравнительно-правовой анализ
- 49 **YULDOSHBEKOV AVAZBEK
ALISHER O'G'LI**
Soliq maslahati tushunchasining nazariy-huquqiy
jihatlari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 58 **ГУЛЯМОВ САИД САИДАХРАРОВИЧ
РУСТАМБЕКОВ ИСЛАМБЕК
РУСТАМБЕКОВИЧ**
Реформирование основ сравнительного
правоведения в цифровую эру: новые
принципы и подходы

85 **БАЛТАБАЕВА ЖИБЕК БАУЫРЖАНОВНА**
Улучшение системы взыскания алиментов
в Казахстане: проблемы и перспективы

94 **ГАФФОРОВ МЕХРАНГИЗ ШАВКАТОВИЧ**
Гражданско-правовые способы защиты
слабой стороны договора

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI OLISH.
KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

107 **CHORIYEV ANVAR QO'ZIYEVICH**
Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar
shaxs huquq va erkinliklarini suddan tashqari
himoya qilish shakllari sifatida

12.00.09 – JINOYAT
PROTSESSI. KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

116 **MAXMADIYAROVA XUMORA O'KTAMOVNA**
Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayyorlash
bosqichida taraflar tortishuvini ta'minlash

122 **OLIMOV BEKMIRZA TUXTAPULATOVICH**
Ekspertiza tayinlash va o'tkazishda shaxs
huquqlarini ta'minlash

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

129 **ВАЛЕЕВ АРТУР МАХМУДОВИЧ**
Правовое регулирование агентской
деятельности в Республике Узбекистан

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA
NAZARIYASI VA METODIKASI
(SOHALAR BO'YICHA)

138 **GULYAMOVA GULNORA YAKUBOVNA**
TURABAYEVA LAZZAT KALIKULOVNA
Ta'limda innovatsion texnologiyalar

146 **НИЯЗОВА НАСИБА ЖУРАБЕКОВНА**
Правовое регулирование статуса языка и
особенности его использования в различных
источниках права

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.4./PPMM9138>
UDC: 347.965(045)

SOLIQ MASLAHATI TUSHUNCHASINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI

Yuldoshbekov Avazbek Alisher o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0000-0001-6132-1383

e-mail: yuldoshbekov94@mail.ru

Annotatsiya. *Ma'lumki, soliq organlari va internet saytlari faqat soliqlar, yig'implar hamda soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar to'g'risida ma'lumot bergani uchun ko'pgina soliq to'lovchilar xolis mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladigan soliq maslahatiga muhtojdirlar. Hozirda soliq bo'yicha maslahat beradigan maxsus firmalar asosan soliq deklaratsiyasini to'ldirish, soliqlar va yig'implarning paydo bo'lishi va to'lash tartibi, soliq to'lovchining soliq imtiyozlarini qo'llash huquqi, ularni amalga oshirish tartibi kabi umumiy masalalar yuzasidan o'z maslahatlarini berib kelishmoqda. Soliq to'lovchilarning soliqqa oid huquqiy bilimlari yetarli va qoniqarli bo'lmaganligi bois deklaratsiyalarni to'ldirishda, soliq sohasidagi imtiyozlardan o'z o'rnida va qonuniy tarzda foydalanishda turli xatoliklarga yo'l qo'yilgan holda qonunda belgilangan soliq to'lovlarini kechikib yoki to'liqsiz amalga oshirish holatlari ko'p uchramoqda. Shu o'rinda qayd etish lozimki, soliq maslahati soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasida soliqqa oid qonunchilikni to'g'ri qo'llash hamda sharhlashda amaliy yordam beruvchi o'ziga xos va mos bo'lgan qonuniy vositachi vazifasini bajarishi lozim. Mazkur maqolada aynan soliq maslahati tushunchasining milliy qonunchiligimizda izohlanishi va ushbu tushunchaga nisbatan olimlarning munosabatlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *soliq qonunchiligi, soliq maslahati, soliq maslahatchisi, moliyaviy savodxonlik, soliq munosabatlari, investitsiya natijadorligi, rag'batlantirish, samaradorlik, mexanizm.*

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ПОНЯТИЯ НАЛОГОВОГО КОНСУЛЬТИРОВАНИЯ

Юлдашбеков Авазбек Алишерович,

самостоятельный соискатель Ташкентского
государственного юридического университета

Аннотация. *Известно, что налоговые органы и сайты предоставляют только информацию о налогах, сборах и изменениях в налоговом законодательстве, поэтому многим налогоплательщикам необходимы налоговые консультации беспристрастных экспертов. В настоящее время специальные налоговые консалтинговые фирмы в основном предоставляют консультации по общим вопросам, таким как заполнение налоговых деклараций, порядок возникновения и уплаты налогов и сборов, право налогоплательщика на использование налоговых льгот, порядок их реализации. Из-за недостаточной и неудовлетворительной правовой грамотности налогоплательщиков наблюдается множество случаев несвоевременной или неполной уплаты налогов, совершения различных ошибок при заполнении деклараций, правильном и законном использовании налоговых льгот. Здесь следует отметить, что налоговое консультирование должно выступать уникальным и подходящим юридическим посредником между налогоплательщиками и налоговыми органами, оказывая практическую помощь в правильном применении и толковании налогового законодательства. В данной статье анализируется трактовка понятия налоговое консультирование в нашем национальном законодательстве и мнения учёных о данном понятии.*

Ключевые слова: налоговое право, налоговое консультирование, налоговый консультант, финансовая грамотность, налоговые правоотношения, инвестиционная результативность, стимул, эффективность, механизм.

THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF THE CONCEPT OF TAX CONSULTING

Yuldoshbekov Avazbek Alisher ugli,
Independent Researcher
of Tashkent State University of Law

Abstract. It is known that tax authorities and websites only provide information about taxes, fees, and changes in tax laws, so many taxpayers need tax advice from impartial experts. Currently, special tax consulting firms mainly provide advice on general issues, such as filling out tax returns, the procedure for incurring and paying taxes and fees, the taxpayer's right to use tax benefits, and the procedure for their realization. Due to the insufficient and unsatisfactory legal literacy of taxpayers, there are many cases of untimely or incomplete payment of taxes, various mistakes in filling out declarations, correct and legal use of tax benefits. It should be noted here that tax counseling should act as a unique and suitable legal intermediary between taxpayers and tax authorities, providing practical assistance in the correct application and interpretation of tax legislation. This article analyzes the interpretation of the concept of tax consulting in our national legislation and the opinions of scholars on this concept.

Keywords: tax law, tax consulting, tax consultant, financial literacy, tax legal relations, investment performance, incentive, efficiency, mechanism.

Kirish

Davlat soliq qo'mitasining rasmiy saytida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, joriy yil boshidan avgust oyiga qadar Soliq qo'mitasi call-markazi orqali jami 66 592 ta murojaat kelib tushgan bo'lsa, shundan 30 312 tasi yuridik shaxslar, 1237 tasi yakka tartibdagi tadbirkorlar, 54 tasi fermer va dehqon xo'jaliklari hamda 34 989 tasi jismoniy shaxslar hisobiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa tadbirkorlarning soliqqa oid huquqiy bilim va ko'nikmalari yetarli emasligidan hamda soliq organlari tomonidan ularga tegishli bo'lgan huquq va majburiyatlari yetarli darajada tushuntirib berilmayotganidan dalolat beradi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, davlat soliq to'lovchiga ma'lumot va tavsiyalarni berish bilan bir qatorda, ulardan haqiqatan foydalanishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlarni yaratib berishi lozim hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, aholining soliq madaniyati darajasini, uning soliq to'lash majburiyatiga psi-

xologik tayyorgarligini oshirish, shuningdek, davlat, soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlar holatini yaxshilashni taqozo etmoqda.

Hozirgi vaqtda soliqlarni to'lash va soliq organlariga ijobiy munosabatni shakllantirishga, qonunga itoatkor soliq to'lovchini tarbiyalashga, mas'ul soliq to'lovchilarning obro'si va soliq qonunchiligini muntazam ravishda buzuvchi shaxslarning fuqarolik yetukligi va insofsizligi to'g'risida jamoatchilik fikrini shakllantirishga qaratilgan kompleks davlat siyosatini amalga oshirish alohida o'rin egallamoqda.

Soliqqa oid targ'ibotlar yordamida davlat soliq majburiyatlarini bajarmaslikka toqat qilmaydigan jamoatchilik fikrini shakllantirish uchun soliq to'lovchining fuqarolik ongi rivojlanishiga, uning fuqarolik va soliq bilimi darajasiga ta'sir qilish mexanizmini ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, soliq va budjet munosabatlari shaffof

bo'lishi, ya'ni soliq to'lovchilar o'z soliqlari qay maqsadda sarflanayotganini haqiqatan ham ko'ra bilishi kerak.

Qonun normalarini professional tarzda tushuntirish, soliq imtiyozlarini to'g'ri qo'llash, operatsiyalarni to'g'ri rasmiylashtirish soliq to'lovchiga jarimalardan qutulib, o'z faoliyatini yanada foydali va samarali olib borishga yordam beradi. Davlat uchun bu soliq organlari xodimlarining ish yukini kamaytirish va soliq tushumlarini oshirishni anglatadi. Kichik biznes juda o'zgaruvchan va iqtisodiyotdagi eng kichik o'zgarishlarga ham moslasha olish xususiyatiga egadir, shuning uchun uning rivojlanishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini imkon qadar tezroq barqarorlashtirishga yordam beradi. Yangi ish o'rinlari tashkil etish, infratuzilmani rivojlantirish va kengaytirish, shuningdek, aholi turmush tarzi darajasini oshirish hisobiga ishsizlik darajasini pasaytirishning asosiy manbayi sifatida kichik biznesni rivojlantirish iqtisodiyotni mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi, shu sababli soliq sohasida maslahat xizmatlari bozori va uni sifat jihatidan rivojlantirish ushbu yo'nalishning ajralmas qismiga aylanishi lozim.

Demak, soliq to'lovchilarning soliqqa oid huquqiy bilimlari yetarli va qoniqarli bo'lmaganligi bois deklaratsiyalarni to'ldirishda, soliq sohasidagi imtiyozlardan o'z o'rnida va qonuniy tarzda foydalanishda turli xil xatoliklarga yo'l qo'yilgan holda qonunda belgilangan soliq to'lovlari kechikib yoki to'liqsiz amalga oshirilmoqda.

Material va metodlar

Tadqiqot obyekti soliq huquqida "soliq maslahati" tushunchasi, uning ta'rifi va uning qo'llanishi bilan bog'liq olimlarning munosabatlari hamda normativ-huquqiy hujjatlarda egallagan o'rni hisoblanadi.

Tadqiqot doirasida qo'llangan metodlar. Tadqiqot olib borishda ilmiy bilishning tizimli-tarkibiy yondashuv, analiz va sintez, mantiqiy-yuridik, formal-yuridik, qiyosiy-h-

uquqiy hamda statistik metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Barchamizga ma'lumki, hozirgi kunda ommaviy axborot vositalari, soliq organlari va internet saytlari faqat soliqlar, yig'implar va soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar to'g'risida ma'lumot bergani uchun ko'pgina soliq to'lovchilar soliq maslahatiga muhtojdirlar. Ammo ular ushbu turdagi manbalardan oqilona foydalanmaydilar. Hozirgi vaqtda soliq bo'yicha maslahat beradigan maxsus firmalar asosan soliq deklaratsiyasini to'ldirish, soliqlar va yig'implarning paydo bo'lishi va to'lash tartibi, soliq to'lovchining soliq imtiyozlarini qo'llash huquqi, ularni amalga oshirish tartibi va boshqalar kabi umumiy masalalar bo'yicha maslahat berishadi [1].

Nafaqat davlat iqtisodiyotining hozirgi holati, balki obyektiv sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin bo'lgan inqirozlarga qarshi turish istiqbollari ham davlatda yashovchi har bir fuqaro moliyaviy jihatdan muhim qarorlarni qanday qabul qila olishiga bog'liq. Moliyaviy savodxonlik moliyaviy xatti-harakatlarga ta'sir ko'rsatishi isbotlangan. Ayniqsa, inqiroz davridan omon qolishga imkon beradigan barqaror moliyaviy holatni shakllantirishdan oldin, moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish muhimdir [2, 33-b.].

Xususan, shaxsning moliyaviy savodxonligi uni jamiyat va davlat bilan samarali muloqot qilishga undaydi. Shuningdek, shaxsning moliyaviy savodxonligini oshirish, unga ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar sifatiga ta'sir qilish uchun rag'batdir [3, 33-b.]. Qonunchilik uchun moliyaviy savodxonlikning ahamiyati moliyaviy bozorlarning huquqiy jihatlaridan va hattoki moliya bilan bog'liq munosabatlardan ham oshib ketadi.

Moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish jamoatchilik ongidagi illyuziyalar, fuqarolarning huquqiy ongidagi deformatsiyalar va davlat huquqiy makonidagi nuqsonlarning shakllanishini cheklash imkonini beradi. Moliyaviy savodxonlik, jumladan, munosib hayot

darajasini baholash o'z huquqlarini e'lon qilish, ularni himoya qilish shakllari va usullarini tanlash imkonini beradi.

Shu jumladan, xorijlik olimlardan N.A. Povetkina va Y.V. Kudryashovalar e'tiborni o'zaro qo'llab-quvvatlash, o'zaro bog'liqlik kabi ikki hodisaning o'zaro bog'liqligi mexanizmining paydo bo'lishiga qaratadilar. Xususan, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish faqat tegishli moliyaviy qo'llab-quvvatlash sharoitida amalga oshirilishi mumkin. Ikkinchidan, moliyaviy barqaror davlat va aksincha, davlat faqat o'z moliyasini samarali, professional boshqarish, shuningdek, shaxsiy moliyani oqilona boshqarish bilan moliyaviy mustahkam, ya'ni moliyaviy jihatdan savodli aholiga ega bo'lishi mumkin [3, 37-b.].

"Soliq maslahati" tushunchasiga ta'rif berishdan avval "maslahat" so'zi qanday ma'noni anglatishiga aniqlik kiritib olish lozim, bu so'z lotincha "consultans" – maslahatchi, "consultatio" – yig'ilish so'zlaridan kelib chiqqan. Demak, "maslahat" tushunchasining mohiyatiga A.P. Posadskiy, S.V. Xaynish [4, 175-b.], L.E. Greiner [5] va K. Makxemlar [6, 288-b.] tomonidan "maslahat berish" va "ma'lumot almashish" kabi ta'riflar berib o'tilganligini ko'rishimiz mumkin.

O.K. Yelmashev [7, 240-b.], R. Metzger, va L. Greynerning [8] ta'kidlashicha, tashkiliy boshqaruv yoki qonunchilik yuzasidan maslahat maxsus o'qitilgan va tegishli malakali shaxslar tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar to'plami bo'lib, ular mijozga obyektiv va mustaqil ravishda ushbu tashkilotning muammolarini aniqlash va tahlil qilishda yordam beradilar va ushbu muammolarni hal qilish usullarini tavsiya qiladilar, shuningdek, agar kerak bo'lsa, taklif qilingan yechimlarni amalga oshirishda ham yordam beradilar.

Shunday qilib, "maslahat" tushunchasini malakali shaxs tomonidan aniq tavsiyalar, yordam va maslahatlar ko'rinishida ifodalangan xizmatlarni taqdim etish shakli sifatida ta'riflash mumkin.

Yuqoridagilarga ko'ra, "soliq maslahati" tushunchasiga to'xtalar ekanmiz, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida ushbu tushunchaga ta'rif berilmagan. "Soliq maslahatiga oid faoliyat to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida asosiy tushunchalarga ta'rif berib o'tilgan va unga ko'ra, "Soliq maslahatiga oid faoliyat soliq maslahatchilari tashkilotining yuridik va jismoniy shaxslarga shartnoma asosida soliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatishga doir faoliyati hisoblanadi".

Quyida esa bir qator olimlar tomonidan keltirilgan bir-biridan farqli mazmundagi tushunchalarni ko'rishimiz mumkin:

Jumladan, T.N. Gushchina soliq maslahatiga "Iqtisodiy va huquqiy maslahat yo'nalishi hamda iqtisodiy faoliyatning mustaqil sohasi", deya ta'rif bergan bo'lsa [9], T.A. Demisheva esa "Soliq to'lovchilarga soliq qonunchiligida nazarda tutilgan majburiyatlarning maqbul bajarilishiga ko'maklashuvchi va shu bilan birga, pulli asosda xizmatlar ko'rsatadigan kasbiy faoliyat turi" [9], deb atagan.

Iqtisodiyot fanlari doktori va Rossiya Soliq maslahatchilari palatasi prezidenti D.G. Chernik soliq maslahati butun soliq sohasidagi huquqiy munosabatlar tizimining ajralmas qismi va bozor infratuzilmasining zarur elementi ekanligini haqli ravishda ta'kidlaydi [10, 34-38-b.].

Ayni vaqtda maslahat xizmatlari bozorida soliq maslahatlarining mustaqil subyektlari tashkil etilganligini inobatga olib, tadqiqotchi olim L.S. Kirina soliq maslahati xizmatlari bozorini shakllantirish va rivojlantirish metodologiyasini o'rganib chiqib, bozor munosabatlari subyektlari tomonidan soliq maslahatining rivojlantirilishi va shakllanishi tabiiy va obyektiv jarayon, degan xulosaga keladi [11, 350-b.].

Turli mualliflar ushbu tushunchani turlicha talqin qilishadi. Masalan, D.G. Chernikning fikriga ko'ra, "Soliq maslahati – soliq to'lovchilar tomonidan soliqlar va yig'implarni hisoblash va to'lash bo'yicha soliqlar va

yig'implar to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlarning to'g'ri va maqbul bajarilishiga ko'maklashadigan pulli asosda xizmatlarni taqdim etish doirasidan tashqaridagi kasbiy faoliyat turidir" [12, 301-b.].

Shuni ta'kidlash kerakki, soliq maslahati institutining iqtisodiy mazmuni bo'yicha zamonaviy tadqiqotlarda ikkala tushuncha ham o'z aksini topgan. Shunday qilib, T.N. Gushchina soliq maslahatini vazifalari teng iqtisodiy sharoitlarni yaratish, biznesning samarali modelini shakllantirish va raqobat muhitida xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda soliq xavfini kamaytirishdan iborat bo'lgan o'rnatilgan bozor mexanizmi deb biladi [13, 90-95-b.].

Su jumladan, T.T. Malikaydarovning qayd etishicha, "Soliq maslahati – qonunda belgilangan tartibda soliq maslahatchisi maqomini olgan shaxslar tomonidan soliq va yig'implarni o'z vaqtida va to'liq to'lashda hamda soliq va yig'implar to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlar ishtirokchilarining qonuniy huquq va manfaatlari amalga oshirilishini ta'minlashdan iborat bo'lgan faoliyat" [14].

Fikrimizcha, tadqiqotchi T.T. Malikaydarovning fikrlari o'rinli bo'lib, hozirgi davrda soliq qonunchiligi soliq bo'yicha vakillik va maslahat institutini nazarda tutib, bu soliq to'lovchilarga soliq masalalarini hal qilishda xususiy maslahatlashuvlardan tortib sud va soliq organlarida ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishgacha bo'lgan malakali huquqiy yordam ko'rsatishni ta'minlashga imkon beradi.

Soliq maslahatini rivojlantirishning mohiyati va zarurligi masalalariga o'quv va ilmiy adabiyotlarda ham chuqur e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, D.G. Chernik maslahatni turli korxonalar va tashkilotlarning menejerlari va boshqaruv xodimlariga ularning faoliyati va rivojlanishidagi muammolarni tahlil qilish va hal qilishda maslahat, tavsiyalar va mijoz

bilan birgalikda ishlab chiqilgan yechimlar shaklida amalga oshiriladigan, mutaxassis maslahatchilarga yordam beradigan professional maslahat faoliyati sifatida ta'riflaydi [15, 439-b.].

Yana bir jumlagi e'tibor qaratadigan bo'lsak, xorij darsliklaridan birida keltirilib, "Soliq maslahati – maslahat oluvchi shaxsga soliq va yig'implar to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan soliq va yig'implarni to'lovchilar, soliq agentlari va boshqa shaxslarning majburiyatlarini lozim darajada bajarishga yordam beradigan va pulli asosda xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga olgan kasbiy faoliyat turidir" [16].

Soliq maslahati yuridik amaliyotning eng murakkab va qiziqarli sohalaridan biridir. Soliq va buxgalteriya hisobi prinsiplarini har tomonlama bilish, amaldagi qonunchilikni va eng muhimi, sud amaliyotini mukammal bilish bilan bir qatorda, professional soliq maslahatchisi barcha o'zgarishlarni (amalda bo'lgan, amaldagi va tayyorlanayotgan) doimiy ravishda kuzatib borishi va soliq nizolarida muntazam sud amaliyotiga ega bo'lishi kerak [16].

L.I. Goncharenko tomonidan tahrir qilingan darslikda mualliflar jamoasi soliq maslahatini mijozga soliq to'lovchilar, yig'im to'lovchilar, soliq agentlari va boshqa shaxslarning soliq va yig'implar to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlarini to'g'ri bajarishga yordam beradigan pulli xizmatlarni taqdim etish bo'yicha professional faoliyat turi sifatida belgilaydi [17, 175-b.].

Rus olimlari D.G. Chernik, L.S. Kirina va V.V. Balakinlarning qayd etishicha, "Soliq maslahati – soliq organlaridan mustaqil bo'lgan subyektlarning soliq to'lovchilar manfaatlarini ko'zlab tavsiyalar ishlab chiqish, hujjatlarni rasmiylashtirish va vakillik qilish bo'yicha faoliyatidir [15, 439-b.].

Bundan tashqari, rus adabiyotlarida soliq maslahati nazariyasiga yondashuvlar, shuningdek, xorijiy tajriba A.V. Ignatushina va

A.V. Arxipova [18, 192-b.], T.N. Gushchina va L.V. Usatova [19, 240-b.], L.A. Mazurina [20, 300-b.], L.S. Kirina [21, 206-209-b.] hamda boshqa mualliflarning asarlarida keltirilgan. Biroq ushbu nashrlarda olimlar maslahat faoliyatini tashkil etish, maslahat jarayonini tartibga solish va standartlashtirish masalalariga e'tibor qaratganlar.

Yuqoridagi olimlarning fikrlarini o'rganar ekanmiz, ushbu olimlar soliq maslahati tushunchasiga o'zlari tadqiqotni qaysi soha yoki faoliyat jihatidan yoritayotgan bo'lsalar, aynan o'sha nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda ta'rif berishga harakat qilishganligini inobatga olgan holda, A.K. Koblyanskiyning fikriga qo'shilish mumkin. Unga ko'ra, "Soliq maslahati – soliq qonunchiligi buzilishining oldini olishda, tuzatib bo'lmaydigan moliyaviy yo'qotishlar xavfini kamaytirishda, soliq munosabatlari ishtirokchilarining tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishda, qonunda belgilangan soliq qoidalarini qo'llash jarayonida ma'muriy deformatsiyalar yuzaga kelishi ehtimolini bartaraf etishga ko'maklashish va qonunga bo'ysunuvchi soliq to'lovchilarning axborot olish hamda soliq majburiyatlarini bajarishda yordam olish huquqlarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi faoliyat turi hisoblanadi" [22, 81-88-b.].

Soliq maslahati sohasidagi ushbu yondashuvni ko'rib chiqayotganda, uning mohiyati soliq qonunchiligini tushuntirish bo'yicha xizmatlarni taqdim etish, shuningdek, ushbu tushuntirishlarni ma'lum bir kompaniyada eng maqbul qo'llash bo'yicha tavsiyalar berishdan iborat deb aytishimiz mumkin.

Soliq bo'yicha maslahat xizmati yuridik shaklda bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ham ega. Bu soliq maslahatini boshqa maslahat turlaridan farq qiladigan va R.N. Entoni [23, 216-b.], J.H. Jekson [24], A. Savruk va R. Krasnyuklar [25] ta'kidlaganlaridek, maxsus tayyorlangan mutaxassislarni jalb etishni talab qiladigan tadbirkorlikning mustaqil sohasi sifatida ko'rsatadi.

Olimlar N.N. Bashkirova va E.B. Sugrobovalarning qayd etishicha, "Soliq maslahati deganda maslahat oluvchiga soliq va yig'implarni to'lovchilar, soliq agentlari hamda boshqa shaxslar tomonidan soliqlar va yig'implar to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlarning to'g'ri bajarilishiga ko'maklashadigan pulli xizmatlarni ko'rsatadigan kasbiy faoliyat turi tushuniladi" [26].

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtiradigan bo'lsak, tadbirkorlik faoliyati nuqtayi nazardan soliq maslahati – soliq to'lovchilar tomonidan soliqlar va yig'implarni hisoblash va to'lash bo'yicha soliq hamda yig'implar to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlarning maqbul va to'g'ri bajarilishiga ko'maklashadigan xizmatlarni pulli asosda buyurtmachiga taqdim etish bo'yicha idoraviy bo'lmagan professional faoliyat turi.

Xususan, soliq maslahati soliq risklarini boshqarishning universal usuli bo'lib, u bir nechta boshqaruv usullarining xususiyatlarini o'zida mujassam etgan, ichki iqtisodiy sharoitda eng samarali bo'lgan, boshqaruv maslahati, huquqiy, hujjatli ta'minot va vaqillik yo'nalishi, soliq to'lovchilarning manfaatlarini bo'yicha amalga oshiriladi. Soliq maslahatining asosiy vazifasi soliq to'lovchiga o'z vazifalarini to'g'ri bajarishda yordam berishdir. Soliq bo'yicha maslahat xizmatlarini ko'rsatuvchi soliq maslahatchilari soliq risklarini samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan barcha vakolatlariga ega.

Vaholanki, soliq sohasidagi maslahat mijoz va maslahatchi o'rtasidagi yuqori darajadagi ishonchni talab qiladi. Ammo hozirgi zamonaviy va kuchli raqobat sharoitida yuridik shaxslar o'zlarining tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni soliq maslahatchisiga oshkor qilishdan qo'rqishadi. Bu esa davlat xizmatlari bozorida soliq bo'yicha maslahatchilar faoliyatining rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi, albatta. Ushbu

muammoni fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, ya'ni turli xil seminarlar, soliq to'lovchilarning savodxonligini oshirish kurslari va bunday tadbirlarni targ'ib etish orqali hal qilishi mumkin. Fuqarolarga bolalikdan yuqori darajadagi soliq madaniyatini singdirishni boshlash ham samarali yechimdir.

Xulosalar

Soliq maslahati tushunchasining asosiy maqsadi soliq maslahatini rivojlantirish va takomillashtirish uchun asos bo'lishdir. Soliq maslahati tushunchasi soliq bo'yicha maslahat berishning dolzarb muammolarini hal qilish uchun asos bo'lishi kerak.

Soliq maslahati tushunchasi tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish uchun budjetga soliq tushumlari va soliq to'lovchilarning manfaatlarini shakllantirish nuqtayi nazaridan davlatning iqtisodiy manfaatlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Soliq maslahati xizmatlarini ko'rsatish bozorini o'z manfaatlarining himoyachisi sifatida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning alohida subyekti va ayni paytda soliq maslahatchilari faoliyatini tartibga solishning ko'p darajali tizimi deb tushunish kerak.

Soliq maslahati tushunchasiga muvofiq, soliq sohasidagi xizmatlarga asosiy vazifasi raqobat muhitida xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun qonun oldida teng biznes sharoitlarini yaratishdan iborat bo'lgan ichki bozor mexanizmi sifatida qaralishi kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda soliq maslahati tushunchasiga mualliflik ta'rifini ishlab chiqilib, quyidagicha to'xtamga kelindi: "Soliq maslahati – tegishli vakolatga ega bo'lgan soliq maslahatchisi tomonidan mijozga haq evaziga soliq maslahati bo'yicha soliq tizimi va undagi o'zgarishlar to'g'risidagi bilimlarni yetkazish faoliyati hisoblanadi".

Shuni ta'kidlash o'rinliki, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda (Buyuk Britaniya) soliq maslahatchilari o'z-o'zini tartibga soluvchi professional jamiyatlarni tashkil qilishadi. Bunday tashkilotlar o'z ishtirokchilarining

faoliyatini tartibga solish bilan bir qatorda xulq-atvor va axloq me'yorlari va qoidalarini ishlab chiqadi. Buyuk Britaniyada soliq bo'yicha maslahatchilar, advokatlar, buxgalterlar va soliq maslahatchilari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Turli mamlakatlarda huquqiy tartibga solish va soliq maslahatlarini tashkil etish tizimlarini taqqoslab, milliy tuzilmalarni taqqoslash uchun quyidagi ikkita asosiy mezonni ajratib ko'rsatish mumkin:

birinchi mezon bozorga soliq maslahatini olishni istaganlarni qabul qilish tartibidir. Bunga talabgorning shaxsiy fazilatlar va malaka darajasiga qo'yiladigan talablarni tartibga soluvchi belgilari kiradi.

Ikkinchi mezon soliq maslahati subyektlarining bozorda o'zini tutish qoidalarini o'z ichiga oladi. Bunday qoidalar soliq maslahatchilarining huquq va majburiyatlari va kasbiy etikasi, kasbiy javobgarlikni sug'urtalash va malakasini oshirish to'g'risidagi qoidalardir. Shu asosda ayrim Yevropa mamlakatlari-da soliq maslahati uchun normativ-huquqiy bazani hisobga olgan holda soliq maslahati bozorida huquqiy munosabatlarni tartibga solishning bir-biridan sezilarli darajada farq qiladigan ikkita tizimini ajratish mumkin.

Bularning birinchisi soliq maslahati uchun normativ-huquqiy baza asosan qonun bilan kodekslashtirilgan "davlat tomonidan tartibga solish" tizimi bo'lsa, ikkinchisi, soliq maslahati uchun normativ-huquqiy baza faqat ishtirokchilarning o'zlari tomonidan o'rnatiladigan "o'zini o'zi boshqarish" tizimidir.

"Davlat tomonidan tartibga solish" tizimi ushbu mamlakatda soliq maslahati to'g'risida maxsus qonun mavjudligini va mazkur qonun asosida tashkil etilgan va faoliyat yuritadigan, uning amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlaydigan va bajarilishini nazorat qiladigan professional birlashma mavjudligini anglatadi.

Ushbu tizimning Yevropadagi vakillariga Avstriya, Vengriya, Germaniya, Italiya,

Polsha, Slovakiya, Fransiya, Xorvatiya va Chexiyani misol qilib keltirishimiz mumkin [21].

“O‘zini o‘zi boshqarish” tizimiga ega bo‘lgan mamlakatlarda odatda soliq maslahatini tartibga soluvchi maxsus qonun mavjud emas. Shu bilan birga, professional birlashma xususiy huquq bazasida yaratilgan bo‘ladi. Shunday qilib, uyushma tomonidan chiqarilgan o‘zlarining normativ qoidalari faqat uning a‘zolari uchun majburiy hisoblanadi. Bunda a‘zolik professional unvonga ega bo‘lish huquqini o‘z ichiga olib, ushbu unvon

potensial mijozga soliq bo‘yicha maslahat xizmatlarini taklif qiluvchi shaxsning kutilayotgan malaka darajasini ko‘rsatadi. “O‘z-o‘zini boshqarish” tizimiga ega mamlakatlarga Belgiya, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Irlandiya, Ispaniya, Finlandiya va Shveysariyani misol qilish mumkin.

Soliq bo‘yicha maslahatlarni huquqiy tartibga solish va tashkil etish, shuningdek, ko‘rib chiqilayotgan mamlakatlardagi professional uyushmalarning ishi umumiy ma‘noda bir-biriga mos keladi hamda faqatgina kichik jihatlaridagina farqlanadi.

REFERENCES

1. Urman N.A. Nalogovoye konsultirovaniye: razvitiye i problemy [Tax consulting: development and problems]. *Bulletin of Tomsk State university. Economy*, 2013, no. 4 (24). Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/nalogovoe-konsultirovanie-razvitie-i-problemy>
2. Arofah A.A. Financial Literacy, Materialism and Financial Behaviour Yunastiti Purwaningsih. *Mintasih Indriayu, International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding (UMMU)*, 2018, August, vol. 5, no. 4, pp. 370–378.
3. Povetkina N.A., Kudryasheva Ye.V. Finansovaya gramotnost i ustoychivoye razvitiye v tsifrovuyu epokhu (pravovoye izmereniye) [Financial literacy and sustainable development in the digital era (legal dimension)]. IZiSP. Moscow, Norma: INFRA-M, 2020, p. 33.
4. Posadskiy A.P., Xaynish S.V. Konsultatsionnyye uslugi v Rossii. [Consulting services in Russia]. Moscow, Finstatinform, 1995, 175 p.
5. Greiner L.E. Patterns of Organization Change. Available at: <https://hbr.org/1967/05/patterns-oforganization-change>
6. Makxem K. Upravlencheskiy konsalting. [Management consulting]. Moscow, Business and Service, 1999, 288 p.]
7. Elmashev O.K. Upravlencheskoye konsultirovaniye: voprosy teorii i praktiki [Management consulting: issues of theory and practice]. Izhevsk, Udmurtia, 1989, 240 p.
8. Greiner L.E., Metzger R.O. Consulting to Management. Englewood Cliffs, NJ, Prentice Hall, 1983.
9. Artemenko D.A., Pimenov S.V. Rol institutsionalizatsii nalogovogo konsultirovaniya v nalogovykh otnosheniyakh [The role of institutionalization of tax consulting in tax relations]. *Scientific Bulletin of YuIM*. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-institutsionalizatsii-nalogovogo-konsultirovaniya-v-nalogovykh-otnosheniyah>
10. Chernik D.G. K voprosu ob istorii nalogovogo konsultirovaniya v Rossii [On the issue of the history of tax consulting in Russia]. *Finance*, 2008, no. 10, pp. 34–38.
11. Kirina L.S. Metodologiya formirovaniya i razvitiya rynka uslug nalogovogo konsultirovaniya v Rossiyskoy Federatsii [Methodology of formation and development of the market for tax consulting services in the Russian Federation]. Doctoral dissertation. Moscow, 2006, 350 p.
12. Chernik D.G., Kirina L.S., Balakin V.V. Nalogovoye konsultirovaniye [Tax consulting]. Moscow, 2014, 301 p.

13. Gushhina T.N. Teoreticheskiye osnovy nalogovogo konsultirovaniya [Theoretical foundations of tax consulting]. *Economic and Humanitarian Sciences*, 2009, no. 5, pp. 91–93.
14. Malikaydarov T.T. Nalogovoye konsultirovaniye v RF: problemy i perspektivy razvitiya [Tax consulting in the Russian Federation: problems and development prospects]. *SibScript*, 2013, no. 4 (56). Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/nalogovoe-konsultirovanie-v-rf-problemy-i-perspektivy-razvitiya>.
15. Chernik D.G., Kirina L.S., Balakin V.V. Nalogovoye konsultirovaniye [Tax consulting]. Moscow, Ekonomika Publ., 2009, 439 p.
16. Artemenko D.A., Artemenko G.A., Belokrylova O.S., Porollo Ye.V., Xasheva Z.M. Nalogovoye administrirovaniye i nalogovy kontrol: teoriya i praktika [Tax administration and tax control: theory and practice]. Krasnodar, Southern Institute of Management, 2006.
17. Bashkirova N.N., Sugrobova Y.B. Osnovy nalogovogo konsultirovaniya [Fundamentals of tax consulting]. Ed. L.I. Goncharenko. Financial Academy under the Government of the Russian Federation. Moscow, Master, 2008, 175 p.
18. Ignatushina A.V., Arkhipova A.V. Azbuka nalogovogo konsultanta [ABC of a tax consultant]. Moscow, Feniks Publ., 2012, 192 p.
19. Gushina T.N., Usatova L.V. Nalogovoye konsultirovaniye: teoriya i praktika [Tax consulting: theory and practice]. Moscow, Dashkov i K Publ., 2009, 240 p.
20. Mazurina L.A. Sovremennoye nalogovoye konsultirovaniye [Modern tax consulting]. Moscow, Analytics Rodis Publ., 2014, 300 p.
21. Kirina L.S. O vozmozhnostyakh ispolzovaniya v Rossii mezhdunarodnogo opyta gosudarstvennogo regulirovaniya nalogovogo konsultirovaniya [On the possibilities of using international experience in state regulation of tax consulting in Russia]. *Business in Law*, 2014, no. 1, pp. 206–209.
22. Kobilyanskiy A.K. Teoreticheskiye i organizatsionnyye aspekty formirovaniya instituta nalogovogo konsultirovaniya [Theoretical and organizational aspects of the formation of the institute of tax consulting]. *Financial Studies*, 2012, no. 1, pp. 81–88.
23. Anthony R.N. The Management Control Function. Boston, Harvard Business School Press, 1988, 216 p.
24. Jackson J.H. The Controller: His Functions and Organization. Cambridge, Mass, 1949.
25. Savruk A., Krasnyuk R. Gotovykh resheniy ne byvayet [There are no ready-made solutions]. *Capital Market*, 1998, no. 23–24. Available at: <http://www.management.com.ua/consulting/cons005.html>
26. Sheshukova T.G., Balenko D.V. Sushhnost nalogovogo konsultirovaniya predpriyatiy i otsenka yego regulirovaniya [The essence of tax consulting for enterprises and assessment of its regulation]. *Finance and Credit*, 2017. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/suschnost-nalogovogo-konsultirovaniya-predpriyatiy-i-otsenka-ego-regulirovaniya>

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2023-yil 4-son

VOLUME 7 / ISSUE 4 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.4.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayeov Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
professor

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Y. Mahmudov, E. Mustafayev

Musahhih: M. Sharifova

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 21.12.2023-yilda tipografiyaga
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 17,67 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 127.
TDYU tipografiyasida chop etildi.